

FIZIKADAN MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY

TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

¹Sheraliyev Sa'dullo Suyunboevich,

² Irkinov Ma'murjon Botirjon o'g'li,

³Qurbanov Nazarboy Shavkat o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika

universiteti Olmaliq filiali, ¹dotsenti, ²assistenti, ³talabasi(gr.5-22 KEM)

Zamonaviy ta'lif metodikasida axborot texnologiyalari yordamida o'qitish tamoyillarini amalga oshirishni yanada samarali metodlarini amaliyatga joriy etishdan iborat. Mamlakatimiz ta'lif metodida, amalda o'quv majmuasi asoslarini o'r ganuvchi, ya'ni mavjud atamalarni va turli o'quv nashrlari tiplari o'rtasida tafovutni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar qilingan va qilinmoqda.

Hozirgi kunda hech kimga sir emaski, ta'linda shu jumladan fizikani o'qitishda axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanilmoqda. Ta'lindagi axborot texnologiyalari - bu kompyuter va internet vositalarini qo'llashga asoslangan yaxlit didaktik tizimdir. Uning asosiy maqsadi individual va maqbul o'quv dasturi bo'yicha faqat talabalarni o'qitish emas, balki shu bilan birlgilikda o'zini - o'zi nazorat qilish hamda ta'lif jarayonini boshqarishda kino, videotasvirlar, videoroliklar, modellar, animatsiyali lavhalardan iborat ovozli dinamik rangli tasvirlardir.

Fizika eksperimental fan bo'lib uning bo'lim mavzularidagi jarayonlarni o'quvchilar ko'z oldiga keltirishlari va eslab qolishlari qiyin. Shuning uchun, elektron vositalar fizikadan ma'kuza, virtual laboratoriya va namoyish ishlarini bajarishda vaqt dan unumli foydalanishga, talabalarga o'zini-o'zi nazorat qilishini o'rgatishga, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, ularni mustaqil bilim olishlarini osonlashtirishga, amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga hamda ularning bilim saviyasini oshirish orqali ta'lif samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim [3,4,5].

Axborot texnologiyalarining imitat sion modellaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini sinfda yoki mavzuni mustaqil o'qitishda foydalanish mumkin. Ma'ruza mashg'ulotlarini interfaol ravishda tashkil etish talabalarda fizik jarayonlarni yaxshi tushunishlariga sabab bo'ladi va qiziqishlarini orttiradi. Quyida ma'ruza darslarini "Mexanik to'lqinlar" mavzusini elektron vositalar yordamida tashkil etish va uning afzalliklarini keltirdik.


Dastlab darsning texnologik xaritasi tuziladi [1].

Mavzuni o'qitish algoritmi:

1-qadam. Muloqot oynasida hosil bo'lgan mexanik to'lqinlarga oid namoyishni o'qitish modelidan nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqiladi.

2-qadam. To'lqin jarayonlarini o'qitishga oid yaratilgan bu model (1-rasm) elastik to'lqinlarni o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, model asosida ko'ndalang to'lqinni rezinali ipda, bo'ylama

to'lqin prujinada kuzatiladi. Yuqoridagi har bir holatlar uchun tajriba parametrlarini o'zgartirish va shu kattaliklarning to'lqin tarqalish tezligiga qanday ta'sir etishini kuzatish mumkin.



1-rasm. Ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlarning tarqalishinining namoyishiga oid model.

Jumladan, bu modelda:

- to'lqin tarqalishdagi vaqt (t) ni sekundomerdan foydalanib o'lchash;
- harakatni vaqtinchalik to'xtatib to'lqin uzunlik (λ) ni o'lchov tasmasidan foydalanib o'lchash;
- to'lqin tarqalishidagi tebranish chastotasi (v) ni o'zgartirish;
- muhit qarshiligi (ρ) ni o'zgartirish;
- siljishi $x(t)$ ning to'lqin tarqalish tezligi $v(t)$ larning vaqtga bo'liqlik garafigini hamda energiyaning saqlanish qonunlarini namoyish orqali kuzatib o'qitish imkonini mavjud.

3-qadam. Ko'ndalang to'lqin mavzusi faollashtiriladi natijada ko'ndalang to'lqinning rezina ipda tarqalishini namoyish etish modeli asosida natija olinib xulosa qilinadi.

1-vazifa. Model asosida: 1-holat. Muhit qarshiligi ρ ni hamda to'lqin tarqalishidagi tebranish chastotasi v ni eng kichik (min) holatda o'rnatiladi va harakatlanish faollashtiriladi. Bu holda yuqoridagi parametrlarni to'lqin tarqalish tezligiga va to'lqin uzunligiga bog'liqligi kuzatiladi va xulosa qilinadi. 2-holat. Muhit qarshiligi ρ ni o'zgartirmasdan to'lqin tarqalishidagi tebranish chastotasi v ni eng katta (max) holatda o'rnatiladi va harakatlanish faollashtiriladi. Bunda yuqoridagi parametrlarni to'lqin tarqalish tezligiga va to'lqin uzunligiga bog'liqligi kuzatiladi.

2-vazifa. Birinchi vazifadagi har ikki hol uchun berilgan parametrlarni mustaqil ixtiyoriy holatda o'zgartirib masala tuziladi va masala echimini modeldan foydalangan holda echiladi va xulosa qilinadi.

3-vazifa. 1-holat. Muhit qarshiligi ρ ni hamda to'lqin tarqalishidagi tebranish chastotasi v ni eng kichik (min) holatda o'rnatiladi va harakatlanish faollashtiriladi. Bu holda yuqoridagi parametrlarni to'lqin tarqalish tezligiga va to'lqin uzunligiga bo'liqligi kuzatiladi va xulosa

qilinadi. 2-holat. Muhit qarshiligi ρ ni o'zgartirmasdan to'lqin tarqalishidagi tebranish chastotasi v ni eng katta (max) holatda o'rnatiladi va harakatlanish faollashtiriladi. Bu holda yuqoridagi parametrlarni to'lqin tarqalish tezligiga va to'lqin uzunligiga bog'liqligini kuzatiladi va xulosa qilinadi.

Har ikki hol uchun berilgan parametrlarni mustaqil ixtyoriy holatda o'zgartirib masala tuziladi va masala echimini modeldan foydalangan holda yechiladi va xulosa qilinadi [2].

Mavzuni mustahkamlash. Talabalar e'tiboriga mavzuga oid krossvordlar yoki test vazifalari beriladi.

Dars yakuni. Darsda o'rganilgan o'quv materiallar pedagogik metodlar yordamida mustahkamlanadi.

Talabaning yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan olgan nazariy va amaliy bilimlarini o'zлari nazorat qilishlari uchun test topshiriqlari va krossvordlar taqdim etiladi.

Elektron o'quv dasturlarida o'rganuvchi istagan paytida fizik jarayonni to'xtatib qo'yishi, orqaga qaytarishi hamda dastlabki parametrlarni o'zgartirib, jarayonga bevosita «aralashib turish» imkoniga egadir. Bunda talaba o'zini go'yo fizik jarayonning ishtiroychisidek his qiladi. Fizik jarayonni o'qitish, albatta, ma'lum bir fizik model, ya'ni mazkur jarayonning mavhumlashtirilgan, soddalashtirilgan obrazi asosida olib boriladi. Real fizik jarayonning immitatsion kompyuter modelini yaratishda ma'lum bir fizik model asos qilib olinib, shu modelning eng muhim elementlarini unda maksimal aks ettirilishiga erishish muhim hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шералиев С.С. Тебраниш ва то'lqinlarни о'чишида замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-методик ва амалий жинаатлари. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2017. – Б.6-116.
2. Sheraliyev S.S., Yuldashev B.E., Tursunmetov K.A. “Mexanik tebranishlar va to'lqinlardan virtual laboratoriya ishlari” elektron o'quv majmuasi // O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. DGU 03628. – Т.: 2016.
3. Шералиев С.С., Qo'зибоев Ш.Т. Физикани о'чишида электрон материаллардан фойдаланиш муаммолари // Раодобатбардош кадрлар тайёрлашга инновацион ёндошув. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари то'плами. – Наманган. НамПИ, 2012. – Б.220-222.
4. Шералиев С.С. Компьютер ва мультмедиа технологияларидан фойдаланган нолда “Механик то'lqinlarning tarqaliishi” мавзусини дарс ишланмасини яратиш // Муғаллим ҳем узликсиз билимленидирио’. Илимий-методикалық журнал. – Нөкис, 2009. -№5-6. –Б.104-109.
5. Применение новых информационно-коммуникационных технологий в преподавании // Материалы Международной конференции. – Санкт-Петербург. Издательство РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. – С.43-57.